



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI TURIZM QO‘MITASI
QO‘SHMA QARORI**

**Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchi va talabalari uchun
“Yosh gidlar maktabi” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 3-iyuldagi 02/4-1345xdfu-son topshirig‘i ijrosini ta’minlash hamda oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchi va talabalarining turizm sohasiga qiziqishini oshirish, gidlik faoliyati bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni tajribali mutaxassislarga biriktirish orqali kasbiy malakasini oshirish hamda yozgi ta’til davrini mazmunli o‘tkazish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. “Yosh gidlar maktabi” dasturida ishtirok etuvchi o‘quvchi va talabalarni saralash, ularni “ustoz-shogird” tamoyili asosida tajribali gidlarga biriktirish orqali stajirovkasini tashkil etish to‘g‘risida Nizom 1-ilovaga muvofiq;

oliy ta’lim tashkilotlarida “Yosh gidlarni tayyorlash” qisqa muddatli kurslariga jalb qilinuvchi o‘quvchi va talabalarning qabul parametrlari 2-ilovaga muvofiq;

“Yosh gidlarni tayyorlash” qisqa muddatli kursi namunaviy dasturi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Oliy ta’lim tashkilotlari 2025-yil 21-iyuldan 26-iyulgacha talabalardan arizalar va motivatsiya xatlarini qabul qilishni ta’minlasin.

3. Tasdiqlangan Nizomga muvofiq 2-ilovadagi oliy ta’lim tashkilotlari:

- **bir kun muddatda** respublikadagi oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari rasmiy saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘quvchi va talabalari uchun “Yosh gidlar maktabi” dasturi amalga oshirilishi, ushbu dasturda o‘quvchi va talabalarning ishtirokini ta’minlashga qaratilgan targ‘ibotlarni amalga oshirish;

- **ikki kun muddatda** “Yosh gidlar maktabi” dasturi ishtirokchilarini saralash komissiyasi tarkibini shakllantirsin va faoliyatini tashkil etsin;

- **joriy yilning 22-iyuliga qadar** saralash natijalari asosida dastur ishtirokchilari ro'yxatini Turizm qo'mitasiga taqdim etsin;

- **joriy yilning 21-iyuldan boshlab** qisqa muddatli "Yosh gidlarni tayyorlash" kurslarini tashkil etsin.

4. Turizm qo'mitasi raisi o'rinbosari (Niyazov):

- **bir hafta muddatda** dastur ishtirokchisi sifatida qabul qilingan o'quvchi va talabalarga tajribali gidlar biriktirilishini ta'minlasin;

- **ikki hafta muddatda** oliy ta'lim tashkilotlaridagi dastur ishtirokchilari sonidan kelib chiqib, oliy ta'lim tashkilotlarining byudjetdan tashqari hisob raqamlariga Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1-ilova bilan tasdiqlanayotgan nizomda ko'rsatilgan xarajatlarni moliyalashtirish choralarini ko'rsin.

5. Mazkur qo'shma qaror ijrosini nazorat qilish Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining o'rinbosari Sh.Daliyev hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi raisi o'rinbosari S.Niyazov zimmlariga yuklatilsin.

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vaziri**



K.Sharipov
2025-yil "18" iyul
69-8/8 - son

**O'zbekiston respublikasi Ekologiya,
atrof-muhitni muhofaza qilish va
iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi
Turizm qo'mitasi**



U.Shadiyev
2025-yil "18" iyul
65-4/4 - son

Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalari uchun "Yosh gidlar maktabi" dasturini amalga oshirish to'g'risida qo'shma qaroriga
1-ilova

**"Yosh gidlar maktabi" dasturida ishtirok etuvchi talabalarni saralash, ularni
"ustoz-shogird" tamoyili asosida tajribali gidlarga biriktirish orqali
stajirovkasini tashkil etish to'g'risida
NIZOM**

I-BOB. Umumiy qoidalar

1.Ushbu Nizom oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlarining o'quvchi va talabalarini gidlikka tayyorlash va yozgi ta'til davrida stajirovkaga jalb etish bo'yicha Respublika miqyosida amalga oshiriladigan "Yosh gidlar maktabi" dasturiga ishtirokchilarni saralash, ularni "ustoz-shogird" tamoyili asosida tajribali gidlarga biriktirish orqali stajirovkasini tashkil etish va moddiy qo'llab-quvvatlash tartibini belgilaydi.

2.Nizom Turizm qo'mitasi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi oliy hamda kasbiy ta'lim tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi.

II-BOB. "Yosh gidlar maktabi" dasturining maqsadi va vazifalari

3."Yosh gidlar maktabi" dasturi (keyingi o'rinlarda – dastur)ning maqsadi mas'uliyatli, kasbiy qiziqishga ega, muloqotga tayyor va gidlik sohasida tajriba orttirishni xohlovchi o'quvchi va talabalarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

4.Dastur quyidagi vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan:
turizm sohasi uchun iqtidorli yosh kadrlar zaxirasini yaratish;
gidlik faoliyatiga qiziqishni oshirish va yoshlarning yozgi ta'til davrini mazmunli tashkil etish;

o'quvchi va talabalarda ekskursiya o'tkazish, jamoa bilan ishlash, axborotni yetkazish kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;

turizm xizmatlarining sifatiga ta'sir etuvchi omil sifatida gidlik faoliyatining obro'-e'tiborini oshirish.

III-BOB. Dasturni amalga oshirish bosqichlari

5.Dasturni amalga oshirish bosqichlari quyidagilardan iborat:

- dasturda qatnashish uchun mas'uliyatli, kasbiy qiziqishga ega bo'lgan oliy va kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalarini saralash;

- "Yosh gidlarni tayyorlash" qisqa muddatli kurslarini tashkil etish;

- dasturda qatnashuvchi o'quvchi va talabalarga tajribali gidlarni biriktirish orqali ularning stajirovkasini tashkil etish.

IV-BOB. Dastur ishtirokchilarini saralash tartibi va bosqichlari

6.Saralash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- a) Ariza topshirish (onlayn yoki ta'lim muassasasi orqali);
- b) Motivatsiya xati yozish (200-300 so'z);
- c) Saralash komissiyasi tomonidan arizalarni ko'rib chiqish;
- d) Natijalarni e'lon qilish va ishtirokchilarni ro'yxatga olish.

7.Loyihada qatnashish istagida bo'lgan talabgorlar (keyingi o'rinlarda – talabgorlar) 2025-yil 21-iyuldan 26-iyulgacha mazkur nizomning 1-ilovasida ko'rsatilgan shakldagi ariza va 2-ilovasida ko'rsatilgan mazmundagi motivatsiya xatini Qo'shma qarorning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan oliy ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinda – oliy ta'lim tashkilotlari)dan birining rasmiy elektron pochta manziliga yuboradi.

8.Talabgorlarning arizalari va motivatsiya xati oliy ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan komissiya (keyingi o'rinlarda –komissiya) tomonidan ko'rib chiqiladi.

9.Har yili 1 ming nafargacha kasbiy va oliy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarini “Yosh gidlarni tayyorlash” o'quv kurslariga jalb etish.

V-BOB. Saralash komissiyasi tarkibini shakllantirish va saralash mezonlari

10. Saralash komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Komissiya) tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

Oliy ta'lim tashkilotning 2 nafar vakili;

Turizm qo'mitasi, Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti yoki hududiy turizm boshqarmalarining vakili;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hududiy boshqarmalarining vakili;

Litsenziyali gid yoki turoperator vakili.

11. Komissiya a'zolari xolislik va shaffoflik prinsiplariga rioya qilgan holda baholashni amalga oshiradilar. Baholash mazkur nizomning 3-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan shakldagi baholash varaqasi orqali yuritiladi.

12. Saralashda talabgorlar 3-ilovada ko'rsatilgan tartibda 100 ballik tizim asosida baholanadi.

13. Komissiya uch ish kunida arizalarni ko'rib chiqadi hamda natijalarga ko'ra quyidagicha xulosalar qabul qiladi:

80–100 ball — dastur ishtirokchisi sifatida qabul qilindi;

60–79 ball — dastur ishtirokchilari zaxirasiga olindi;

0–59 ball — qabul qilinmadi.

14. Agar dastur ishtirokchisi sifatida qabul qilingan o'quvchi yoki talaba ayrim sabablarga ko'ra dasturda ishtirok eta olmasa uning o'rnini zaxiraga olingan dastur ishtirokchilari ro'yxatidagi o'quvchi va talabalar ro'yxatida yuqori ball to'plagan o'quvchi yoki talabalar bilan to'ldiriladi.

15. Saralash natijalari barcha ishtirokchilarga rasmiy ravishda elektron shaklda yoki ta'lim tashkiloti orqali bir ish kunida yetkaziladi.

VI-BOB. “Yosh gidlarni tayyorlash” qisqa muddatli kurslarini tashkil etish tartibi

16. Saralash natijalariga ko'ra loyihaga qabul qilingan o'quvchi va talabalar 4 haftalik “Yosh gidlarni tayyorlash” qisqa muddatli o'quv kurslariga bepul asosda jalb etiladi.

17. Qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar oliy ta'lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

18. Qisqa muddatli o'quv kurslarini yakunlagan o'quvchi va talabalarga 4-ilovaga muvofiq ko'rinishdagi “Gid yordamchisi” maxsus beydjigi taqdim etiladi.

19. Turizm qo'mitasi tomonidan “Gid yordamchisi” maxsus beydjigi raqamlanadi va gid yordamchilarining yagona reyestri yuritiladi.

20. Mazkur beydjikka ega bo'lgan o'quvchi va talabalar oliy ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan gid-tarjimonlarni qayta tayyorlash kursida o'qish uchun 30 %lik chegirmaga ega bo'lishadi.

VII-BOB. Dasturda qatnashuvchi o'quvchi va talabalarga tajribali gidlarni biriktirish va ularni moddiy qo'llab-quvvatlash tartibi

21. Oliy ta'lim tashkilotlari Turizm qo'mitasiga dastur ishtirokchilar bo'lgan o'quvchi va talabalar ro'yxatini taqdim etgan holda gidlik stajirovkasini o'tashlari uchun ularga tajribali gidlarni biriktirish va moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida so'rovnoma kiritadi.

22. Turizm qo'mitasi oliy ta'lim tashkilotlarining so'roviga ko'ra:

a) bir hafta muddatda o'quvchi va talabalarni tajribali gidlarga “ustoz-shogird tamoyili” asosida biriktiradi;

b) 15 kun muddatda oliy ta'lim tashkilotlarning hisob raqamlariga mazkur nizomda belgilangan tartibda mablag'larni o'tkazilishini ta'minlaydi.

23. Stajirovka o'tash muddati 15 kunni tashkil etadi.

24. Qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etilayotgan oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan dastur ishtirokchilarini talabalar turar joylariga imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bepul joylashtirish choralari ko'radi.

25. Dastur ishtirokchisi bo'lgan har bir o'quvchi va talabaning quyidagi xarajatlarini qoplash uchun Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan mablag' ajratiladi:

stajirovka o'tkazilayotgan hududga borish va qaytish chiptalarini xarid qilish uchun – 500 ming so'm;

yotoqxona yoki ijara uy xarajatlarini qoplash uchun – 1 mln so'm.

Ushbu mablag'lar oliy ta'lim tashkilotlaridagi dastur ishtirokchilari sonidan kelib chiqib, oliy ta'lim tashkilotlarining budjetdan tashqari hisob raqamlariga o'tkazib beriladi.

Tegishli ta'lim tashkilotlari tomonidan o'quvchi va talabalarning plastik kartasiga mablag'larni o'rnatilgan tartibda o'tkazib berish ta'minlanadi.

O'quv kursi hamda stajirovka o'tash davomida yuzaga keladigan qo'shimcha xarajatlar o'quvchi va talabalarning o'z mablag'lari hisobidan qoplanadi.

26. Har bir dastur ishtirokchisi bo'lgan talabalar Stajirovka yakunida baholanadi. Baholash Komissiya tomonidan mazkur nizomning 5-ilovasida ko'rsatilgan shaklga muvofiq amalga oshiriladi.

VIII-BOB. Yakuniy qoidalar

27. Mazkur nizomga o'zgartish va qo'shimchalar taraflarning o'zaro kelishuviga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28. Nizomda ko'rsatilmagan holatlar bo'yicha qaror Komissiya a'zolari tomonidan qabul qilinadi.

“Yosh gidlar maktabi” dasturida
ishtirok etuvchi talabalarni saralash
tartibi to‘g‘risida NIZOMga 1-ilova

Ariza

F.I.Sh: _____

Tug‘ilgan sana: _____

Oliy ta’lim muassasasi nomi: _____

Fakultet va yo‘nalish: _____ Kurs: _____

Telefon raqami: _____

Elektron pochta manzili: _____

Chet tillarini bilishi: _____ Darajasi: _____

Turizm sohasida tajriba (agar bo‘lsa): _____

Ijtimoiy faollik (ixtiyoriy): _____

“Yosh gidlar maktabi” dasturida
ishtirok etuvchi talabalarni saralash
tartibi to‘g‘risida NIZOMga 2-ilova

Motivatsiya xati bo‘yicha ko‘rsatmalar

Mavzu: “Nega men – Yosh gidlar maktabi”da o‘qishni xohlayman va qanday hissa
qo‘sha olaman?”

Hajmi: 200–300 so‘z

Talablar:

- O‘zingizni tanishtiring (ixtisoslik, qiziqishlar);
- Gidlik sohasiga qiziqishingizni tushuntiring;
- Dasturda ishtirok etishdan kutgan natijalaringizni yozing;
- Qisqa, mazmunli va xolis yozilgan bo‘lishi kerak.

“Yosh gidlar maktabi” dasturida
ishtirok etuvchi talabalarni saralash
tartibi to‘g‘risida NIZOMga 3-ilova

Talabgorlarni baholash varaqasi

Mezon	Maksimum ball	Qo‘yilgan ball
Motivatsiya xati mazmuni va aniqligi	40	
Arizadagi ma’lumotlar	30	
Ijtimoiy faollik	20	
Avvalgi tajriba	10	
Jami ball	100	

“Yosh gidlar maktabi” dasturida
ishtirok etuvchi talabalarni saralash
tartibi to‘g‘risida NIZOMga 4-ilova


“Gid yordamchisi” maxsus beydjigi



*O‘zbekiston respublikasi
Ekologiya, atrof-muhitni
muhofaza qilish va iqlim
o‘zgarishi vazirligi huzuridagi
Turizm qo‘mitasi*



GID YORDAMCHISI



ФОТО



ISMI/NAME

FAMILIYASI/SURNAME

BEYDJ RAQAMI/
BADGE NUMBER

AMAL QILISH
MUDDATI/VALID TILL

MULOQOT TILI/
LANGUAGE

“Yosh gidlar maktabi” dasturida
ishtirok etuvchi talabalarni saralash
tartibi to‘g‘risida NIZOMga 5-ilova

Gidlik stajirovkasi yakuniy baholash shakli

1. Talaba haqida ma’lumot.

F.I.Sh: _____

Oliy/kasbiy ta’lim muassasasi: _____

Stajirovka obyekti (muzey/turoperator, gid): _____

Stajirovka muddati: _____

2. Baholash mezonlari va ballar.

Mezon	Maksimum ball	Qo‘yilgan ball
Nazariy bilimlar (test, yozma ish)	25	
Ekskursiya materialini tayyorlash sifati	20	
Muloqot va taym-menejment ko‘nikmalari	15	
Amaliy mashg‘ulotdagi faollik va tashabbuskorlik	20	
Yakuniy chiqish (ekskursiyani o‘tkazish)	20	

3. Baholovchilar tuzilmasi.

1. Litsenziyalı gid/ turoperator yoki muzey vakili (F.I.Sh): _____

2. Oliy ta’lim tashkiloti vakili: _____

3. Hududiy turizm boshqarmasi vakili: _____

4. Hududiy oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi vakili: _____

4. Yakuniy xulosa va baholash.

Jami ball: _____ / 100

Baho: [☐] A’lo [☐] Yaxshi [☐] Qoniqarli [☐] Qoniqarsiz

vakili

Litsenziyalı gid/ turoperator yoki muzey

Oliy ta’lim tashkiloti vakili

Hududiy turizm boshqarmasi vakili

Hududiy oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
boshqarmasi vakili

Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalari
uchun "Yosh gidlar maktabi" dasturini amalga oshirish
to'g'risida qo'shma qaroriga
2-ilova

**Oliy ta'lim tashkilotlarida "Yosh gidlarni tayyorlash" qisqa muddatli
kurslariga jalb qilinuvchi o'quvchi va talabalarning qabul
PARAMETRLARI**

T/r	Oliy ta'lim tashkilotlari nomi	Kurslarga jalb qilinuvchi talabalar soni	Oliy ta'lim muassasalarining elektron pochta manzili
1.	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	125	info@tsuos.uz
2.	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	150	uzdjt@uzswlu.uz
3.	"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti	150	info@univ-silkroad.uz
4.	Urganch davlat universiteti	150	info@urdu.uz
5.	Samarqand davlat chet tillari instituti	125	info@samdchti.uz
6.	Andijon davlat chet tillari instituti	150	asifl@edu.uz
7.	Buxoro davlat universiteti	150	buxdu_rektor@buxdu.uz
Jami:		1000	

*Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi
va talabalari uchun "Yosh gidlar maktabi" dasturini
amalga oshirish to'g'risida qo'shma qaroriga
3-ilova*

**“Yosh gidlarni tayyorlash” qisqa muddatli
malaka oshirish kursining o'quv
DASTURI**

(Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlarining o'quvchi va talabalari uchun)

Kursning maqsadi – oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining gidlik kasbi bo'yicha bilim, amaliy ko'nikmalarini zamon talablari asosida oshirishdan iborat.

Kursning vazifalari quyidagilardan iborat:

- turizm, madaniy meros va gidlik sohalariga oid asosiy nazariy bilimlarni berish (turizm tarixi, gidlik psixologiyasi, servis madaniyati);
- yoshlarda ekskursiya o'tkazish, ma'lumot taqdim etish va turistlar bilan muloqot qilish kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
- o'quv-amaliy mashg'ulotlar orqali jonli ekskursiya tayyorlash va o'tkazish tajribasini berish;
- gidlik faoliyatini tanlashni istovchi yoshlarni saralash va keyingi malaka bosqichlariga yo'naltirish.

Kurs hajmi

Kursning o'quv jarayoni **80 soat**ni tashkil etadi. Ma'ruza mashg'ulotlari **20 soat**, treninglar **20 soat** va amaliyot **40 soat**dan iborat.

Kurs yakunida o'quvchi va talabalarga **sertifikat** beriladi.

**O'quv kursi bo'yicha mavzular va soatlar
TAQSIMOTI**

T/r	Modul mavzulari	Umumiy soat	Jumladan		
			Ma'ruza	Trening	Amaliyot
Jami		80	20	20	40
1.	Gidlik faoliyatiga kirish. Turizm va ekskursiyachilar tarixi.	4	4		
2.	Gidlik kasbining huquqiy asoslari va mas'uliyatlari (<i>Mehmon spiker</i>).	4	4		
3.	Ekskursiya psixologiyasi va turistlar bilan muloqot (<i>Trening</i>).	4		4	

4.	O'zbekistonning turizm obyektlari (madaniy, tarixiy, ekoturizm).	4	4		
5.	Gidlikda axborot texnologiyalaridan foydalanish (audio-gid, xarita, QR-kodlar).	4		4	
6.	Ekskursiya ssenariysi tuzish va tayyorgarlik.	4			4
7.	Gid ovozi, nutqi va harakati bo'yicha mashqlar.	4			4
8.	Turistik marshrutlarni tanlash va tayyorlash. <i>(Xarita asosida mashg'ulot)</i>	4		4	
9.	Gidning qiyofasi, etikasi va tayyorgarligi. <i>(Rolli o'yinlar)</i>	4	4		
10.	Turistlarga xizmat ko'rsatishda favqulodda vaziyatlar. <i>(Kazus tahlili)</i>	4	4		
11.	Mahalliy muzey – amaliy ekskursiya. <i>(Tur guruhini boshqarish)</i>	4			4
12.	Arxeologik yodgorlik – ma'lumot berish. <i>(Ekskursiya rejasini taqdim etish)</i>	4		4	
13.	Shahar bo'ylab piyoda ekskursiya <i>(Nutq tayyorlash va yetkazish)</i> .	4			4
14.	Eko-marshrutdagi gidlik <i>(Gid sifatida guruhga yetakchilik)</i> .	4			4
15.	"Gidlar kuni" — mustaqil ekskursiya o'tkazish.	4			4
16.	Tajribali gid bilan birga ekskursiya o'tkazish. <i>(“Ustoz-shogird” tizimi)</i>	4			4
17.	Tajribali gid bilan birga ekskursiya o'tkazish. <i>(“Ustoz-shogird” tizimi)</i>	4			4
18.	Master-klass: Professional giddan o'rnak. <i>(Mehmon spiker)</i>	4		4	
19.	Kursdan olingan bilimlarni taqdim etish. <i>(Taqdimot o'tkazish)</i>	4			4
20.	Yakuniy attestatsiya va fikr-mulohazalar.	4			4

Mashg'ulotlar mavzularining mazmuni

1-mavzu: Gidlik faoliyatiga kirish. Turizm va ekskursiyachilar tarixi.

Gidlik faoliyatining tarixi, ahamiyati va turizm sohasidagi o'rni haqida tushuncha beriladi. Turizmning rivojlanish bosqichlari va ekskursiyachilikning ildizlari bilan tanishiladi.

2- mavzu: Gidlik kasbining huquqiy asoslari va mas'uliyatlari.

Gid sifatida faoliyat yuritishdagi huquqiy asoslar, litsenziyalash tartibi, javobgarlik, mehnat munosabatlari va qonunchilikdagi asosiy normalar bilan tanishish.

3- mavzu: Ekskursiya psixologiyasi va turistlar bilan muloqot.

Turistlarni tushunish, ular bilan muloqot qilish uslublari, tinglovchi diqqatini saqlash, guruhni boshqarish va turli mentalitet bilan ishlash psixologiyasi.

4-mavzu: O'zbekistonning turizm obyektlari (madaniy, tarixiy, ekoturizm).

Respublikadagi asosiy tarixiy, madaniy va tabiiy turizm obyektlari haqida umumiy ma'lumot. Turizm yo'nalishlariga mos obyektlar klassifikatsiyasi.

5- mavzu: Gidlikda axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Audio-gidlar, QR-kodlar, xaritalar va mobil ilovalardan foydalanish ko'nikmalari. Onlayn ekskursiya materiallari tayyorlash.

6- mavzu: Ekskursiya ssenariysi tuzish va tayyorgarlik.

Tartibli ekskursiya tuzish usullari: kirish, asosiy qism va yakun. Ssenariy tuzish, ma'lumotni tizimlashtirish va tayyorgarlik jarayoni.

7- mavzu: Gid ovozi, nutqi va harakati bo'yicha mashqlar.

Ovozni boshqarish, diksiya va nutq ravonligi. Tana tili, harakat madaniyati va jismoniy ifodaning ekskursiyadagi ahamiyati.

8- mavzu: Turistik marshrutlarni tanlash va tayyorlash.

Marshrut tuzishda e'tibor qaratiladigan omillar, vaqt va masofa balansi, logistika va xronologiyani rejalashtirish.

9- mavzu: Gidning qiyofasi, etikasi va tayyorgarligi.

Kasbiy ko'rinish, kiyinish madaniyati, etika, gigiyena, o'zini tutish madaniyati va mehmonlarga hurmat bilan munosabat.

10- mavzu: Turistlarga xizmat ko'rsatishda favqulodda vaziyatlar.

Turistlar bilan ishlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar: sog'liq, yo'qolish, kechikish, xavfsizlik bo'yicha harakat strategiyasi.

11- mavzu: Mahalliy muzey – amaliy ekskursiya.

Muzeyda amaliy ekskursiya tashkil etish. Ekspонатlarni tanlash, taqdimot uslubi va ma'lumot berish usullarini amalda qo'llash.

12- mavzu: Arxeologik yodgorlik – ma'lumot berish.

Arxeologik obyektida ma'lumot yetkazish, tarixiy manbalarni yoritish va turistlarda qiziqish uyg'otish usullari.

13- mavzu: Shahar bo'ylab piyoda ekskursiya.

Shahar infratuzilmasidan foydalangan holda, to'g'ri marshrut chizish, nuqtalar tanlash va jamoani boshqarish amaliyoti.

14- mavzu: Eko-marshrutdagi gidlik.

Ekologik turizm obyektlarida gid sifatida faoliyat yuritish. Tabiatni asrash va turistlarga eko-madaniyatni targ'ib qilish.

15- mavzu: “Gidlar kuni” — mustaqil ekskursiya o‘tkazish.

Tinglovchilarning mustaqil ekskursiya tayyorlashi, nutq so‘zlashi va guruh oldida chiqishini amalga oshirish.

16- mavzu: Tajribali gid bilan birga ekskursiya o‘tkazish.

“Ustoz-shogird” tizimi orqali tajribali gid bilan ekskursiyada ishtirok etish va kuzatish.

17- mavzu: Tajribali gid bilan birga ekskursiya o‘tkazish.

Amaliyotni davom ettirish, qayd etish, foyda va kamchiliklarni tahlil qilish.

18- mavzu: Master-klass: Professional giddan o‘rnak.

Mehmon spiker – muvaffaqiyatli gidlardan ta’lim va tajriba almashish.

19- mavzu: Kursdan olingan bilimlarni taqdim etish.

Har bir tinglovchi o‘zining ekskursiya loyihasini, marshrut va nutqini taqdim qiladi.

20- mavzu: Yakuniy attestatsiya va fikr-mulohazalar.

Test va amaliy baholash. Tinglovchilarning fikr va takliflari, yakuniy sertifikatlash.